Emro Science and Education
Open-access scientific journal
Journal homepage: https://journal.emro.uz
OPEN ACCESS

CONFERENCE PAPER OPEN ACCESS

Vol. 2 No. 1 (2025) · “Raqamli iqtisodiyot sharoitida hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish va yuqori iqtisodiy o‘sish sur’atlarini ta’minl...

4. Nazarov, U. (2023). O‘zbek talabalari orasida rustilini o‘rganishdagi raqamli platformalarning o‘rni. Toshkent davlat universiteti ilmiy to‘plami, №1, 78–84.

5. https://www.duolingo.com – Duolingo rasmiy veb-sahifasi, 2025-yil 5-mayda murojaat qilingan.

6. https://www.youtube.com – YouTube videoplatformasi, rus tilini o‘rgatishga oid kanallar (Be Fluent in Russian, Learn Russian with Anastasia), 2025-yil 4–5 mayda murojaat qilingan.

# O‘ZBEKISTON OLIY O‘QUV YURTLARIDA IQTISODIY TAHLILNI O‘QITISHNING DOLZARB MASALALARI

**Saliev Bahodir Kamilovich**
*TDIU dotsent,i.f.n,*
solievbahodir7@gmail.com
**Joylolova Marjona Abdunazar qizi**
*TDIU Andijon fakulteti*
*“BHA” yo‘nalishi 2-bosqich talabasi*
*marjonaabdunazarovna7@gmail.com*

**Annotatsiya**: Maqolada iqtisodiy tahlil fanining oliy o‘quv yurtlarida o‘qitilishining dolzarb masalalari xaqida fikr yuritiladi. Iqtisodiy tahlilning nazariy va amaliy jihatlari, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni o‘quv jarayoniga integratsiya qilish, innovatsion o‘qitish usullaridan takomillashtirish imkoniyatlari iahlil qilinadi.

**Kalit so‘zlar**: iqtisodiy tahlil, oliy ta’lim, pedagogik texnologiyalar, innovatsion usullar, amaliy ta’lim, mustaqil ta’lim, baholash mezonlari, iqtisodiy fanlar, ta’lim sifati, xalqaro standartlar, ilmiy-tadqiqot, raqamli texnologiyalar, mutaxassis tayyorlash.

**Annotatsiya:** V dannoy state rassmatrivayutsya aktualnыe voprosы prepodavaniya ekonomicheskogo analiza v vыsshix uchebnыx zavedeniyax Uzbekistana. Analiziruyutsya teoreticheskie i prakticheskie aspektы ekonomicheskogo analiza, integratsiya sovremennыx pedagogicheskix texnologiy v obrazovatelnыy protsess, a takje vozmojnosti ispolzovaniya innovatsionnыx metodov obucheniya.

***Klyuchevыe slova:*** ekonomicheskiy analiz, vыsshee obrazovanie, pedagogicheskie texnologii, innovatsionnыe metodы, prakticheskoe obuchenie, samostoyatelnoe obuchenie, kriterii otsenki, ekonomicheskie dissiplinы, kachestvo



Published: 24.05.2025
**Cite this article:** Saliev Bahodir Kamilovich, Joylolova Marjona Abdunazar qizi (2025). O‘zbekiston oliy o‘quv yurtlarida iqtisodiy tahlilni o‘qitishning dolzarb masalalari. Emro Science and Education, 2(1). https://journal.emro.uz/public/maqola/288
*© 2025 The Author(s). Published by Emro Science and Education. This is an open access article.*

obrazovaniya, mejdunarodnыe standartы, nauchnыe issledovaniya, sifrovыe texnologii, rынochnaya ekonomika, podgotovka spesialistov.

**Annotation:** This article examines the pressing issues of teaching economic analysis in higher education institutions in Uzbekistan. It analyzes the theoretical and practical aspects of economic analysis, the integration of modern pedagogical technologies into the educational process, and the potential for utilizing innovative teaching methods.

**Keywords:** economic analysis, higher education, pedagogical technologies, innovative methods, practical learning, independent learning, assessment criteria, economic disciplines, education quality, international standards, scientific research, digital technologies, market economy, specialist training.

Hozirgi kunda iqtisodiy tahlilni o‘qitishda innovatsion usullar va axborot texnologiyalaridan foydalanish zarurati ortib bormoqda. Iqtisodiy tahlil iqtisodiyot fakultetlarida asosiy fanlardan biri bo‘lib, uni o‘qitish sohaga ixtisoslashgan mutaxassislar yetishtirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Iqtisodiy tahlil – har qanday biznes, korxona va iqtisodiy tizim faoliyatini samarali boshqarish uchun muhim fanlardan biridir. Oliy ta’lim tizimida ushbu fanni o‘qitish orqali talabalar iqtisodiy jarayonlarni tahlil qilish, moliyaviy ko‘rsatkichlarni baholash va samarali boshqaruv qarorlarini qabul qilish ko‘nikmalariga ega bo‘ladilar. Shuning uchun iqtisodiy tahlil fanining ta’lim tizimidagi o‘rni va uni zamonaviy usullar asosida o‘qitish muhim masala sanaladi.

Iqtisodiy tahlil fanining o‘qitilishi quyidagi maqsadlarga qaratilgan:

- ✓ Xo‘jalik yurituvchi sub’ektlarni iqtisodiy, moliyaviy va ijtimoiy tomonlarini tavsiflovchi ko‘rsatkichlar tizimini shakillantirish metodologiyasini o‘rgatish;
- ✓ Xo‘jalik faoliyati natijalariga ta’sir etuvchi omillar va ularni o‘zaro bog‘lanishlari xaqida yetarlicha tushuncha berish;
- Talabalarga iqtisodiy jarayonlarni tahlil qilishda qo‘llanadigan an’anaviy, statistik va matematik usullarni o‘rgatish;
- Korxonalarning moliyaviy holati, barqarorligi, to‘lov qobilyati va samaradorligi baholash ko‘nikmalarini shakllantirish;
- Korxonalar samaradorligini oshirishda yo‘l qo‘yilayotgan xato va kamchiliklarni, foydalanmayotgan imkoniyatlarni qidirib topish va ularn amaliyotga joriy qilishning tadbirlarni ishlab chiqishning analitik qobilyatini shakillantirish.
- Amaliy bilimlar orqali iqtisodiy muammolarni hal qilish strategiyalarini ishlab chiqish.

Innovatsion yondashuvlar ta’lim samaradorligini oshirishga va talabalarning iqtisodiy tahlilni amaliyotda qo‘llash bo‘yicha ko‘nikmalarini shakllantirishga yordam beradi. Quyidagi yondashuvlar talabalarning bilim va ko‘nikmalarini oshirishda samarali hisoblanadi:

- Interfaol metodlar – amaliy mashg‘ulotlar, muammoli vaziyatlar tahlilli biznes o‘yinlari va rolli o‘yinlar orqali ta’lim jarayonini jonlantirish;
- Raqamli texnologiyalar – Excel, Power BI, Python va boshqa dasturlar yordamida tahlil usullarini qo‘llash;
- Online va masofaviy ta’lim – elektron ta’lim platformalaridan foydalanish orqali talabalar mustaqil ta’lim olish imkoniyatiga kengaytirish;
- Jamoaviy ish – guruhli topshiriqlar va loyihalar orqali talabalar o‘rtasida fikr almashish va tahliliy ko‘nikmalarni rivojlantirish.

Iqtisodiy tahlil fanida baholash tizimi ham muhim hisoblanib, u talabaning nazariy bilimlarini va amaliy ko‘nikmalarini tekshirishga qaratilgan. Asosiy baholash mezonlari quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

- Yozma ishlar va testlar – iqtisodiy tahlilning nazariy asoslarini tushunish darajasini aniqlash;
- Amaliy topshiriqlar – talabaning statistik va moliyaviy hisobot ma’lumotlari bilan ishlash va tahlil qilish ko‘nikmalarini sinash;
- Taqdimot va loyiha ishlari – iqtisodiy masalalarni mustaqil o‘rganish va jamoaviy ishlash qobiliyatini baholash;
- Ilmiy-tadqiqot faoliyati – iqtisodiy tahlilga oid ilmiy maqolalar va tadqiqot loyihalarini ishlab chiqish.

Mustaqil ta’limni rivojlantirish orqali talabalar o‘z-o‘zini rivojlantirishga va zamonaviy iqtisodiy tahlil usullaridan samarali foydalanishga o‘rganadilar. Shu bilan birga iqtisodiy tahlil fanini o‘qitishda turli xil muammolar uchraydi. Bularga misol qilib quyidagilarni sanab o‘tishimiz mumkin:

1. Amaliyot va nazariya o‘rtasidagi tafovut – o‘quv dasturlarida real sektor misollariga yetarlicha e’tibor qaratilmasligi;
2. Raqamli texnologiyalarni qo‘llashda kamchiliklar – zamonaviy dasturiy vositalarni o‘qitish yetarli darajada yo‘lga qo‘yilmaganligi;
3. O‘quv materiallarining eskirishi – iqtisodiy tahlil usullariga oid darsliklarni tez eskirishi va xalqaro tajribalarni keng qo‘llanmasligi;
4. Kadrlar yetishmovchiligi – iqtisodiy tahlil bo‘yicha katta amaliy tajribaga ega bo‘lgan yuqori malakali o‘qituvchilarning yetishmasligi.

Bu muammolarni bartaraf etish uchun o‘quv dasturlarini xalqaro standartlarga moslashtirish, amaliyot bilan bog‘langan dars usullarini rivojlantirish va zamonaviy texnologiyalarni ta’lim jarayoniga kengroq joriy etish talab etiladi. Iqtisodiy tahlil fanini yanada samarali o‘qitish uchun quyidagi takliflar ilgari suriladi:

1. Ta’lim dasturlarini yangilash – xalqaro standartlarga mos o‘quv rejalarini ishlab chiqish va zamonaviy iqtisodiy tahlil usullarini qengaytirish;
2. Amaliyotga yo‘naltirilgan yondashuv – real iqtisodiy ma’lumotlarni tahlil qilish, tadbirkorlik subektlari bilan hamkorlikni kengaytirish;
3. Axborot texnologiyalaridan keng foydalanish – Excel, Power BI, Python kabi dasturlar yordamida iqtisodiy tahlil usullarini o‘rgatish;
4. O‘qituvchilar malakasini oshirish – xalqaro iqtisodiy tahlil tajribasini o‘rganish uchun o‘qituvchilarni xorijiy ta’lim dasturlarida ishtirok etishini rag‘batlantirish;
5. Ilmiy-tadqiqot faoliyatini rivojlantirish – talabalarning iqtisodiy tahlil bo‘yicha tadqiqot ishlarini rag‘batlantirish va amaliy loyihalarni ishlab chiqish.

**Xulosa:** Umuman olganda, iqtisodiy tahlil fanining ta’lim tizimidagi o‘rni va ahamiyati yildan yilga ortib bormoqda. Zamonaviy iqtisodiy muhitda raqobatbardosh va yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash uchun fan bo‘yicha o‘qitish metodlarini doimiy takomillashtirish va innovatsion pedagogik texnologiyalarni keng joriy etish talab etiladi. Excel, Power BI, Stata va Python kabi dasturiy vositalarni o‘rgatish, interfaol o‘qitish usullaridan foydalanish va real amaliyot bilan bog‘langan ta’lim tizimini shakllantirish fan samaradorligini oshiradi.

**Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Raximov M.Y., Mavlonov N.N., Kalandarova N.N. Iqtisodiy tahlil. (O‘quv qo‘llanma. - T.: Iqtisod-Moliya, 2020. -517b.
2. Pardaev M.Q. Iqtisodiy tahlil nazariyasi. Darslik. – T.: “Fan va texnologiyalar nashriyot-matbaa uyi”, 2022. - 588 bet.

## SOTISH HAJMINI O‘SISH SUR’ATIGA TA’SIR ETUVCHI OMILLARNI MODELLASHTIRISH

**Saliev Bahodir Kamilovich**
*TDIU dotsenti, i.f.n.*

**Anotatsiya:** Maqolada xo‘jalik yurituvchi sub’ektlarning maxsulotlar, tovarlar, ish va xizmatlarining sotish xajmini o‘sish sur’atiga ta’sir etuvchi ichki xo‘jalik